

INNOVATIONS IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибатуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda qo'shilgan qiymat solig'i hisobini takomillashtirish

Djalilov Rahmonkul Hamidovich, Xusanov Asadbek Akbar o'g'li

Совершенствование учета налога на добавленную стоимость в хозяйствующих субъектах

Джалилов Рахманкул Хамидович, Хусанов Асаadbек Акбар углы

Improving the accounting of value added tax in business entities

Djalilov Raxmonkul Khamidovich, Khusainov Asadbek Akbar ugli

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada qo'shilgan qiymat solig'i, uning respublikamiz va xorijiy mamlakatlar soliq tizimidagi o'rni, soliq imtiyozlaridan foylanish holati va zaruriyati asoslangan.
- **Kalit so'zlar:** soliq, qiymat, bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, soliq imtiyozi, foydalanilmagan mablag'lar, byudjet, hisobot davri.
- **Аннотация.** В основу данной научной статьи положены налог на добавленную стоимость, его место в налоговой системе нашей республики и зарубежных стран, статус и необходимость использования налоговых льгот.
- **Ключевые слова:** налог, стоимость, косвенные налоги, налог на добавленную стоимость, налоговый кредит, неиспользованные денежные средства, бюджет, отчетный период.
- **Abstract.** This scientific article is based on the value added tax, its place in the tax system of our republic and foreign countries, the status and necessity of using tax benefits.
- **Key words:** tax, cost, indirect taxes, value added tax, tax credit, unused funds, budget, reporting period.

KIRISH

Xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobi asosan moliyaviy va soliq hisobotlarida ishonshli ma'lumotlarni aks ettirish ushuncha tashkil etiladi. Buxgalteriya hisobida qiymatliklarni sotib olish va sotish bo'yicha QQSni hisobini yuritishni joriy qilinishi buxgalteriya hisobini sezilarli darajada murakkablashtirdi. QQSning alohida hisobi buxgalterlik kasbining rivojlanishini murakkablashtirdi.

Mamlakatimizda ham buxgalteriya hisobi sohasida ham islohatlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni[1] va 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimsha shora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarorida[2] mamlakatimizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobning xalqaro standartlari bosqishma-bosqish o'tkazish hamda moliyaviy va soliq hisoblarini uyg'unlashtirish

vazifasi belgilab berilgan edi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o'tgan yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 20-oktyabrda ro'yxat raqami 3221-1 ro'yxatdan o'tgan "Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorga[3] qo'shimshalar kiritish asosida soliq hisobotlari, shu jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobot shakllari MHXSlariga yaqinlashtirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlar va me'yoriy hujjatlardan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'i hisobini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini takomillashtirish borasida ko'pchilik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

K.M.Misirov "Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasida qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalarini o'rgangan va tegishli takliflar bergan[4]. Ushbu ilmiy ishda qo'shilgan qiymat solig'ining moliyaviy hisobini amaldagi schyot faktura shaklini takomillashtirish asosida QQS bazasini aniqlashtirish muammolari yoritilgan.

K.R.Xotamov o'zining ilmiy ishlarida qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq quyidagi masalalarni tadqiq qilgan: mahsulotlar eksportini tasdiqlash, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol darajali stavkani qo'llash, soliq solinadigan bazaga tuza-tish kiritish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish; avtomatlashtirilgan tizimda hujjatlar asosida soliq auditini o'tkazish metodikasini va bilvosita soliqlarni hisobga olish, hujjatlarda aks ettirish va jarayonlarning schyotlardagi bog'lanishlari amaliy va uslubiy asoslangan holda takomillashtirish va boshqalar.

K.R.Xotamovning fikricha: hisobda buxgalteriya yozuvlarining mohiyatan to'g'ri berilishi hisob-kitob ishlaridagi chalkashliklarning oldini oladi, soliq va moliyaviy hisobotlarni tuzishda xatoliklarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash maqsadida ortiqcha to'langan bilvosita soliqlar summalari qaytarilishini 6410-"Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar (tur-lari bo'yicha)" schyotidan emas, taklif qilingan 4420-"Byud-jetga ortiqcha to'lovlar" schyotidan qaytarish taklifi berilgan (1-jadval) [5].

Sotilgan tovarlar bo'yicha hisoblashishlar amalga oshiril-ganidan keyin qaytarilgan tovarlar va ular bo'yicha to'lan-gan qo'shilgan qiymat solig'i summasini buxgalteriya hiso-bida aks ettirishda sotilgan mahsulotning puli to'langanligi yoki to'lanmaganligiga e'tibor qaratish lozimligiga qarab buxgalteriya hisobi aks ettirish taklifi berilgan.

1-jadval

Nol darajali stavkani qo'llash bo'yicha operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

T/R	XO'JALIK OPERATSIYALARINING MAZMUNI	21-SON BHMS ASOSIDA		BERILAYOTGAN TAKLIF ASOSIDA	
		DT	KT	DT	KT
1.	Xom-ashyo va materiallar sotib olinganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga (eksport korxonalarida)	4410*	6010	4420	6010
2.	Nol darajali stavkani qo'llash bo'yicha byudjetdan mablag'ning qaytarib olinishiga	5110	6410	5110	4420
3.	Nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan summani boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish uchun yo'naltirganda	6410	4410	6410	4420
4.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda to'liq hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	-	-	9430	6410
5.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda ilgari xom-ashyo va materiallar sotib olinganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasining hisobga olinishiga	-	-	6410	4420
6.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda byudjetdan bo'lgan qarzdorlik hisob-kitob schyotidan o'tkazib berilganda	-	-	6410	5110

A.B.Abdullaev ilmiy ishlarida qqs hisobini takomillashtirishda asosan elektron hisobvaraq-fakturalarga urg'u bergan[6].

A.B.Abdullaevning fikricha, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarining elektron schyot-fakturalardan foydalanish natijasida hisob-fakturalarni soliq hisobotlarida aqs ettirmaslik, hisob-fakturalarni qalbakilashtirish, import qilingan tovarlar uchun bojxonada to'langan QQS summalarni ortiqcha miqdorda hisobga olish evaziga qqs summasini kamaytirish, QQS to'lovchi bo'lmagan korxonalar hisobiga QQS summasini hisobga olish ya'ni qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan qochish xolatlarining oldi olinadi va bu esa soliq siyosatini takomillashuvi hamda iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqaririshiga olib keladi.

F.A.Akramov esa ilmiy ishlarida qo'shilgan qiymat solig'i

auditini takomillashtirish masalalarini o'rganishda, QQS hisobining ba'zi muammolarini yoritib bergan. Auditor tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobotlarda ko'rsatilgan soliq bazasiga tuzatish kiritilishi holatlarini tekshirishda tuzatishlarning hujjatlar bilan asoslanganligi o'rganiladi. Shuningdek, bu operatsiyalarni buxgalteriya hisobining boshlang'ich hujjatlari va schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligi tekshiriladi[7].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi ilmiy ishlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida qo'shilgan qiymat solig'i hisobining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinmagan. shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i hisobini MHXSlariga transformatsiya qilish jarayonidagi muammolar yoritilmagan.

2-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'ini buxgalteriya hisobida aks ettirishda ishtirok etadigan schyot tizimi [11]

SCHYOTNING RAQAMI	SCHYOTLAR NOMI
4010	Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar
4310	TMQlar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar
4410	Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (turlari bo'yicha)
5110	Hisob-kitob schyoti
5210	Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari
5220	Chet eldagi valyuta schyotlari
5510	Akkreditivlar
6010	Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar
6240	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar
6310	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar
6410	Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz: qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qarz
7010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar
7310	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar
9010	Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar
9020	Tovarlarni sotishdan daromadlar
9030	Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar
9040	Sotilgan tovarlarning qaytishi
9110	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi
9120	Sotilgan tovarlarning tannarxi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, mantiqiylik va guruhlash usullaridan foydalanildi. Respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha zanjiri yaratilishi borasida amalga oshirilgan islohotlar va soliq imtiyozlari, davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatga molik tovarlarga (xizmatlarga) qo'shilgan qiymat solig'ining ta'siri tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini MHXS o'tkazish va transformatsiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarorlari qabul qilingan[8].

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishda asosiy boshlang'ich hujjat bo'lib hisobvaraqq-faktura hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 47-moddasida hisobvaraqq-faktura quyidagicha bayon etilgan:

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, agar mazkur moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchilarga hisobvaraqq-fakturani taqdim etishi shart.

Hisobvaraqq-faktura, qoida tariqasida, elektron

hisobvaraqq-fakturalarning axborot tizimida elektron shaklda rasmiylashtiriladi[9].

QQS bo'yicha soliq auditini o'tkazishda auditor tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanaga e'tibor berish lozim. Chunki, aylanma amalga oshirilgan sanani aniq ko'rsatilishi ham realizatsiya hajmini, ham qo'shilgan qiymat solig'i summalarini to'g'ri aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 242-moddasida aylanma amalga oshirilgan sana deb quyidagilar e'tirof etilgan: "Mahsulot etkazib beruvchi tomonidan hisobvaraqq-faktura taqdim etilgan sana yoki tovarlar jo'natilgan (berilgan) sana, agar ushbu sana hisobvaraqq-faktura taqdim etilgan sanadan oldin kelsa, tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir[10].

Endi, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq ba'zi normalar buxgalteriya hisobida qanday aks ettirilishini ko'rib chiqamiz. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishda ishtirok etadigan schyotlar 2-jadvalda keltirilgan.

Biz qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirishni bayon etishdan voz kechgan holda, BHMS-21 keltirilmagan operatsiyalarning ba'zilarini ochib berishga harakat qilamiz.

Soliq kodeksining 239-moddasida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmaga tovarni bepul berish kiritilishi belgilangan. Bu jarayon bilan bog'liq qo'shilgan qiymat solig'i buxgalteriya hisobi schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi.

3-jadval

Bepul berilgan mahsulot va tovarlarga tegishli QQS hisoblashni schyotlarda aks ettirish

№	XO'JALIK OPERATSIYALARI MAZMUNI	BUXGALTERIYA YOZUVLARI		
		SUMMA (MING SO'M)	SCHYOTLAR KORRESPONDENTSIYASI	
			DT	KT
1.	Xayriya qilingan mahsulotlarning qiymatini hisobdan chiqarish	250 000	9110	2810
2.	Xayriya qilingan tovarlarning qiymatini hisobdan chiqarish	150 000	9120	2910
3.	Xayriya qilingan mahsulotlarga tegishli QQS summasiga	30 000	9110	6410
4.	Xayriya qilingan tavarlarga tegishli QQS summasiga	18 000	9120	6410
5	QQS byudjetga to'lanishi	48 000	5110	6410

Har bir korxona o'zining hisob siyosati bilan tasdiqlangan ishchi schyotlar rejasida qo'shilgan qiymat solig'i 6420-"Byudjetga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qarz" schyot hisobga olinishi belgilab olishlari mumkin. Masalan, tayyor mahsulotning sotilishi quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan aks ettiriladi: Har bir korxona o'zining hisob siyosati bilan tasdiqlangan ishchi schyotlar rejasida qo'shilgan qiymat solig'i 6420-"Byudjetga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qarz" schyot hisobga olinishi belgilab olishlari mumkin. Masalan, tayyor mahsulotning sotilishi quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan aks ettiriladi: Dt schyot 4010-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

Kt schyot 9010-"Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar". Bu operatsiya bilan bog'liq QQS summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvi tuziladi:

Dt schyot 4010-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

Kt schyot 6420-"Byudjetga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qarz".

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qo'shilgan qiymat solig'i buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliya yili uchun hisob siyosatini MHXS (IAS) 8-"Hisob siyosati, hisob baholashlardagi o'zgarishlar va xatolar"ga mos holda shakllantirish maqsadida, soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatini alohida bo'lim sifatida kiritishlari lozim. Soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati bo'limida korxonalar tomonidan to'lanadigan soliqlar, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishning tanlangan usullari sifatida kiritish maqsadga muvofiq.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini to'g'ri tashkil etish va ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash maqsadida 6411-"Byudjetga qo'shilgan qiymat solig'i to'lovlari bo'yicha qarz" schyoti bo'yicha quyidagi ishchi schetlarni ochish va ularni schyotlar rejasiga kiritish tavsiya qilamiz:

6420- schyot-"12% stavkada sotib olingan tovar-moddiy xaxiralarga QQS";

6421- schyot-"0% stavkada sotib olingan tovar-moddiy xaxiralarga QQS".

Bu qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq hisobotlarini tuzishni osonlashtiradi va soliq nazoratini kuchaytiradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Djalilov Rahmonkul Hamidovich - Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, (PhD) / Джалилов Рахманкул Хамидович - Доцент Каршинского

государственного технического университета, (PhD) / Djalilov Rahmonkul Hamidovich - Associate Professor of Karshi State Technical University, (PhD)

► djalilovrahmonqul@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-1029-1027>

2. Xusanov Asadbek Akbar o'g'li - Qarshi davlat texnika universiteti magistranti / Хусанов Асадбек Акбар углы - Магистрант Каршинского государственного технического университета / Khusanov Asadbek Akbar ugli - Master's student at Karshi State Technical University

► xusanovasadbek@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-8247-0112>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.
- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori.
- [3] O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2020-yil 30-sentyabrdagi "Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorga qo'shimchalar kiritish haqida 2020-38-son Qarori.
- [4] Misirov K.M. "Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2010.
- [5] Xotamov K.R. "Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish" i.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati, T. 2016 y.16 b.
- [6] Abdullaev A.B. Soliq to'lovlari hisobi va tahlilini takomillashtirish. Avtoreferat. 2020.
- [7] Akramov F.A. soliq xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish. Avtoreferat. 2022.
- [8] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qaror.
- [9] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 47-modda. 2023.
- [10] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 242-moddasi. 2023.
- [11] BHMS №21.